

SHARQ MASH'ALI



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

4
2024



*Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi
ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)*

Bosh muharrir:
G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:
D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinbosari)
X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)
A. MANNONOV (prof., f.f.d.)
Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)
R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)
SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)
Q. OMONOV (prof., f.f.d.)
U. MUHIPOVA (prof., f.f.d.)
D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)
X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)
B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)
A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)
M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)
X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)
D. XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD)
SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)
N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)
A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)
R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)
I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)
R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)
E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)
A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.)
G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.)
ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba univ. prof.)
LI DJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.)
V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.)
A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.)
A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)
G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.)
A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)
S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)
H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)

Nashrga tayyorlovchilar:
J. ISMOILOV, H. SULAYMONOVA
L. HAMDAMZODA,
G. HUSHNAZAROVA

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va
tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop
etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal original-maket asosida bosildi.
Sharq mash'ali, 2024 yil 4-son.
e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz

Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi
mumkin.

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 4, 2024-yil

Adabiyotshunoslik

Muhiddinova D. Zamonaviy arab va o'zbek
yozuvchilari asarlarida qur'oniy qissa va
rivoyatlarning badiiy talqini2
Turdiyeva O. Eronda hikoya janri taraqqiyotida
Muhammad Ali Jamolzodaning o'rni7
Ashurova M. Xitoy adabiyotida esse janrining
paydo bo'lishi va taraqqiyoti14
Yusupova D. Siyovush Kasroiylar she'riyatida
Simurg' qushi talqini22
Umarova N. "Quyonglar" qisqa romanida
lakonizm va badiiy til xususiyatlari28
Jo'rayeva X. Husayn Boyqaro – Husayniy
adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi ...35

Tilshunoslik

Korayem S. Modern linguistic trends in language
education42
Азимджанова Д., Абсаломова Н. Выражение
гнева в персидском языке: лингвистический
и культурологический анализ 54
Abubakirov J. "Gunki monogatari" badiiy til
xususiyatlari va tipologiyasi64
Muxammadjonov A. "Arab tilida sinonimiya,
uning leksik-semantik rivojlanish sabablari:
klassik va zamonaviy yondashuvlar"71
Shukurov A. Arab tilidagi harbiy atamalarni
tasniflashning o'ziga xos xususiyatlari81

Tarix

Xodjimuratova D. Eron davlat boshqaruvi tizimida
diniy va dunyoviy institutlarning o'rni90
Taylaqov T. Falastinning demografik tarixi96

Tashqi siyosat

Xudayberdueva C. Изучение пожилых людей в
геронтологии и их типы 104
Kushanova Y. Markaziy Osiyo va Fransiya
munosabatlari tadqiqotchilar nigohida 113
Sayfullayev N. Turkiya tashqi siyosati bo'yicha
asosiy mafkuraviy yondashuvlar121
Xayrullayeva I. Hindiston ta'lim sohasida xotin-
qizlar ishtiroki va ahamiyati (Uttar-pradesh shtati
misolida 129
Qalandarov O'. Eronning 1979-yildagi
inqilobdan keyin Afg'oniston bilan savdo-
iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi 144

**ZAMONAVIY ARAB VA O'ZBEK YOZUVCHILARI ASARLARIDA
QUR'ONiy QISSA VA RIVOYATLARNING BADIY TALQINI****DILAFRUZ MUXIDDINOVA***Dotsent, f.f.d., TDSHU*

Annotatsiya: Arab va o'zbek adabiyotlarining jahon adabiy jarayoniga qo'shilishi va muloqotda bo'lishi, jahon adabiyotining turli yo'nalish va oqimlarining ta'siri va bu jarayonda o'z milliy adabiy an'alarini saqlab qolishga intilishi hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida (60-70 yillar) zamonaviy arab nasri yozuvchilarning ijodiy maqsadiga mos yangi badiiy vositalar bilan boyib bordi. Zamonaviy arab adabiyotidagi mazkur yangilanish jarayonlarining yuzaga kelishiga ma'lum ichki va tashqi omillar sabab bo'ldi. Ichki omillar sifatida XX asr o'rtalarida Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan, arab dunyosida muhim siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlarning ro'y berishi, jumladan, arab-isroil urushi, arab mamlakatlaridagi ichki nizolar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar, iqtisodiy tengsizlik, ayollar huquqlari, shaxs erkinligi uchun kurash va boshqa shu kabi holatlarning adabiyotga ta'sirini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, sharq xalqlariga xos bo'lgan boy adabiy meros, kuzatuvchanlik, voqelikning ichki mohiyatiga e'tibor bilan qarash, uning asl mazmunini qidirish va bu xususiyatlarning musiqa, she'riyat, borliqni anglash falsafasida kuzatilishini ham ichki omil sifatida ta'kidlash joiz. Tashqi omillardan jahon adabiyotining, undagi zamonaviy yo'nalish va oqimlarning ta'sirini ko'rsatib o'tish mumkin.

Tayanch so'z va iboralar: realizm, modernizm, simbolizm, yangilanish tamoyillari, rivoyat, iqtibos, talmeh, "safarnoma", syujet, kompozitsiya, "hikoya ichida hikoya qilish".

Аннотация: Вклад арабской и узбекской литературы в мировой литературный процесс и их взаимодействие, влияние различных направлений и течений мировой литературы, а также стремление сохранить свои национальные литературные традиции приобретают сегодня важное значение.

Во второй половине XX века (60-70-е годы) современная арабская проза обогатилась новыми художественными средствами, соответствующими творческим целям писателей. Процессы обновления в современной арабской литературе были вызваны определенными внутренними и внешними факторами. Внутренними факторами можно считать важные политические, социальные и экономические изменения, произошедшие в странах Ближнего Востока, особенно в арабском мире в середине XX века, включая арабо-израильскую войну, внутренние конфликты, противоречия и столкновения в арабских странах, экономическое неравенство, борьбу за права женщин, свободу личности и другие подобные явления, оказавшие влияние на литературу. В качестве внутреннего фактора следует отметить богатое литературное наследие восточных народов, пристальное обращение к внутренней сути действительности, поиск ее истинного смысла, а также проявление этих характеристик в музыке, поэзии и философии понимания бытия. В качестве внешних факторов можно указать влияние мировой литературы, современных направлений и течений.

Ключевые слова: реализм, модернизм, символизм, принципы обновления, сказание, цитата, аллюзия, путевые заметки, сюжет, композиция, обрамленная повесть.

Abstract: The contribution of Arabic and Uzbek literature to the global literary process and their interaction, the influence of various trends and movements in world literature, as well as the desire to preserve their national literary traditions, have gained significant importance today. In the second half of the 20th century (1960s-1970s), contemporary Arabic prose was enriched with new artistic means that aligned with the creative goals of writers. The processes of renewal in contemporary Arabic literature were triggered by certain internal and external factors. Internal factors recognize significant political, social, and economic changes that took place in the Middle



Eastern countries, particularly in the Arab world in the mid-20th century, including the Arab-Israeli war, internal conflicts, contradictions, and clashes in Arab countries, economic inequality, the struggle for women's rights, personal freedom, and other similar phenomena that influenced literature. An important internal factor is the rich literary heritage of Eastern peoples, a keen focus on the inner essence of reality, the search for its true meaning, as well as the manifestation of these characteristics in music, poetry, and philosophy of understanding existence. External factors comprise the influence of world literature, modern trends, and movements.

Keywords: realism, modernism, symbolism, principles of renewal, narrative, quote, allusion, travel notes, plot, composition, framed story.

KIRISH. Arab dunyosidagi yangilanish jarayonlari yangi avlod yozuvchilarning badiiy tafakkurida o'z ifodasini topdi. Umumjahon adabiy aloqalari ta'siri natijasida G'arb modernizmi zamonaviy arab nasriga badiiy tafakkur doirasida katta ta'sir ko'rsatdi. Uning mahsuli sifatida XX asr ikkinchi yarmida ijod qilgan N.Mahfuz, Yu.Idris, M.Hofiz Rag'ab, J.al-G'itoni, J.Salim, Z.Tamer, V. Ixlosiy, Diya ash-Sharqaviy va boshqa bir qator yozuvchilar modernizmning turli oqimlari (ekzistensializm, simvolizm, syurrealizm va h.) va neorealizm, postmodernizm kabi zamonaviy yo'nalishlarga ijodiy yondashgan holda arab xalqining dunyoqarashi, qadriyatlari, milliy xususiyatlari, qolaversa, diniy dunyoqarashiga mutanosib bo'lgan epik an'analarni saqlab qoldilar.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham bu yangilanish jarayoni XX asrning 80-yillarning oxiri 90-yillaridan boshlanib, buning o'ziga xos ichki va tashqi omillari mavjud. Tashqi omil bu jahon adabiy jarayonidagi modernizm, postmodernizm, neorealizm kabi turli zamonaviy yo'nalishlarning ta'siridir. Ichki omilni esa taniqli adabiyotshunos olim U.Normatov quyidagicha baholaydi: "80-yillar oxiri 90-yillarning boshlaridagi vaziyat bizda absurd adabiyotining, absurd inson obrazining tug'ilishiga zamin tayyorladi. Yetmish yillik va'da, orzu-umidlarning puchga chiqishi, jahonda eng adolatli, baxtli boqiy tuzum deb jar solingan tuzumning istiqbolsiz, eng ilg'or birdan-bir to'g'ri qarash sanalgan markscha-lenincha ta'limotning yaroqsiz bo'lib chiqishi ko'plarni sarosimaga solib qo'ydi. Bu hol hayotini, bor zakovatini shu ma'nisiz ta'limotga, yo'lga tikkan, adashgan, endilikda aqlini tanib mudroq vujudi uyg'ongan odamlar uchun mislsiz fojia bo'ldi. Biroq butun boshli ijtimoiy tuzumning, shu tuzum uchun hayotini tikkan shaxs faoliyatining bema'niligini izchil tarzda tag-tugi bilan ochib beruvchi asarlarning paydo bo'lishi uchun mana endi sharoit yetildi"¹. Demak, o'zbek adabiyotida ham shaklan, ham mazmunan yangi uslubdagi asarlarning shakllanishiga 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlaridagi mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy vaziyat va istiqloldan keyingi ijoddagi erkinlik, ya'ni avval tanishish taqiqlangan modernizm oqimlari bilan bevosita tanishishga berilgan imkoniyat zamin bo'ldi.

Mustaqillikdan keyingi yillarda ba'zi o'zbek yozuvchilari modernizm ta'sirida modernistik san'atning turli texnik usullaridan unumli foydalangan holda o'zbek xalqining milliy xususiyatlari, mentalitetiga moslashtirgan holda badiiy asarlar yaratishmoqda. U.Normatov o'zining "Adabiy ta'limning yangi davri" nomli essesinde "Aminmanki, "Begona"ni anglamay turib hozirgi o'zbek adabiyotidagi yangicha yo'nalishga mansub Omon Muxtor, X.Do'stmuhammad. N.Eshonqul, U.Hamdani, S.Vafo hikoya va qissa va romanlarini, "Yoshlik" jurnalida e'lon etilayotgan o'nlab asarlarni, jumladan, Zulfiya Qurolboy qizining "Tafakkur", "Hilola" "Otlig" va "Alomat" hikoyalarini tushunish anglash qiyin"², shuningdek, "Nihoyat bizda ham hayot hodisalarini, inson shaxs jumboqlarini, realizm zaminida, ilohiy-ruhoniylar qarashlar jo'rligida badiiy tahlil-tadqiq etishga urinishlar bo'lyapti"³, kabi o'zbek zamonaviy nasri haqidagi fikrlarni bildirgan.

¹Норматов У. Умидбахш тамойиллар. Т. 2000. 6-7 б.

²Мустақиллик дари адабиёти. Адабий-танқидий мақолалар, бадиалар. Т., Ф.Ғулом, -2006, 81 –б.

³Норматов У. Умидбахш тамойиллар. Т. Маънавият, - 2000, 20- б.



MAQSAD VA VAZIFALAR. Zamonaviy arab va o'zbek yozuvchilar ijodida o'z zamonasining dolzarb masalalarini tasvirlash jarayonida Qur'oniy qissalarga va rivoyatlarga murojaat qilish kuzatilmoqda. Bunda yozuvchilar payg'ambarlar hayotiga oid qissa va rivoyatlarga ishora qilgan holda, asar syujetlarini yaratmoqdalar. Mazkur maqolada arab yozuvchisi Jo'rij Salim va o'zbek yozuvchisi Omon Muxtor asarlarida "iqtibos", "talmeh" badiiy san'atlari orqali Qur'oniy qissa va rivoyatlarning o'ziga xos badiiy talqini o'zaro qiyoslash maqsad qilingan.

USULLAR. Qiyosiy-tarixiy, tarixiy-tipologik, germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MULOHAZA. Zamonaviy arab va o'zbek nasrida milliy adabiy an'analar har bir yozuvchida individul namoyon bo'lmoqda. Arab va o'zbek zamonaviy yozuvchilari zamonaviy nasrda modernistik texnik tasvir vositalardan foydalangan holda "rihla" (safamoma), "tarixiy xronika" (sol-noma), diniy-falsafiy ruhdagi nasriy janrlar va shuningdek, ularning kompozitsion xususiyatlari ("hikoya ichida hikoya", ya'ni badiiy qoliplash va b.), kabi miliy adabiy an'analarni saqlab qolishga intilmoqdalar.

Milliy ma'naviy merosga murojaat qilish adabiyotda payg'ambarlar, avliyolar haqidagi qissalardan foydalanish azal-azaldan davom etib kelayotgan an'analarda ham kuzatiladi. Bu an'ana har bir davr adabiyotida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. O'rta asrlarda musulmon adabiyotida, ayniqsa, she'riyatda (arab, o'zbek, fors, turk va boshqa musulmon mintaqalar adabiyoti) Qur'onda keltirilgan payg'ambarlar hayoti haqidagi rivoyatlardan didaktik tarzda iste'foda qilish uchun yondoshilgan. Mazkur an'ana zamonaviy arab va o'zbek adabiyotida davom etgan holda, o'ziga xos uslubda namoyon bo'lmoqda.

XX asrning 60-70 yillarida ijod qilgan taniqli suriyalik yozuvchi Jo'rij Salim¹ va taniqli o'zbek yozuvchisi Omon Muxtor ijodida arxetip obrazlar, ya'ni payg'ambarlar haqidagi qissalar syujetidan foydalangan holda zamonaviy voqelik bilan birlashtirib poklik, ezgulik, to'g'rilik, haqgo'ylik, iymon-e'tiqod kabi azaliy, ya'ni umuminsoniy masalalarni bayon etishi aks etadi.

Xususan, arab yozuvchisi Jo'rij Salim "Qonlar"² hikoyasida iqtibos³ badiiy san'atini qo'llagan holda, Qur'onda bayon etilgan Alloh Taoloni Ibrohim payg'ambar va uning o'g'lining iymonini sinash uchun bergan buyrug'ini asos qilib olgan⁴. Bu buyruqni so'zsiz ado etishga chog'langan Ibrohimga Alloh Taolo tomonidan sinovdan o'tgani haqidagi xabar bilan qurbonlik uchun o'g'li o'rniga jannatdan qo'chqor yuboriladi.⁵ Mazkur hikoyada aynan mana o'sha Qur'oniy qissaga ishora qilinadi, hikoya qahramonining ismini ham Ibrohim deb nomlaydi, hikoya qahramoniga Ibrohim payg'ambarining sifatleri berilgan. Ya'ni hikoya qahramoni Ibrohim nihoyatda pok, halol, chin e'tiqodli, komil inson sifatida gavlantiriladi. Hikoyada zalolatga botgan o'z shaharini poklashga urinayotgan inson, ya'ni Ibrohim atrofidagi voqealar bayon etiladi.

¹Jo'rij Salim (1933-1976) Suriyaning Halab shahrida tavallud topgan. Adib bolaligidan ilmga chanqoq, tirishqoq, iqtidorli bo'lib, adabiyotga yoshligidan qiziqishi kuchli bo'lgan. Yozuvchi ko'p yillar davomida Damashq universitetida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullangan, Madaniyat Vazirligida ishlagan. Shuningdek, Jo'rij Salim dastlab Suriya yozuvchilar uyushmasi bo'lgan, keyinchalik Arab yozuvchilari uyushmasining tashkilotchisi va rahbarlaridan biri hisoblanadi. Jo'rij Salim adabiyot sahnasiga XX asr ikkinchi yarmida kirib kelgan. Uning qalamiga "Quvg'inda" (1962) romani, "Bechora odamlar" (1968), "Ketish" (1970), "Karlar suhbatlari" (1973), "Qadimgi tashnalik hikoyasi" (1976), "Cheksiz kenglikdagi yolg'iz tovush" (1976) nomli hikoyalar to'plami mansub.

جورج سالم. حكاية الظم القديم. قصص. - دمشق: منشورات اتحاد الكتاب العرب. 1976. - ص. 53-58.

³Иктибос – Қаранг: Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ: Аруз вазни ва бадийи воситалар ҳақида. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1981. – 242-243 б.

⁴ Alloh Taolo Ibrohimning iymon-e'tiqodini sinash uchun o'g'lini qurbonlik qilishni buyuradi. Qur'onda keltirilishicha, Ibrohim Payg'ambar Xojardan bo'lgan o'g'li Ismoilni qurbon qilishga ahd qilgan.

⁵Qarang: Куръони Карим. Ва-Сафот сураси, 101 - 107 оятлар.



Mazkur hikoyaning asl g'oyasi, unda ko'zlangan maqsadni ochib beruvchi yetakchi epizod - bu sirli nido bo'lib, hikoyada bu holat sirli nido bilan Ibrohim o'rtasidagi suhbat orqali ochib boriladi:

- Ey, Ibrohim! Ey, Ibrohim! Joyingda to'xta!

Ibrohim joyida qimirlamay turib qoldi.

Ovoz qaytarildi: - Shahar aholisini ular yaratgan sharmsizlikdan xalos et!

- Qaniydi, buni qilolsam.

- Agar sen buni xohlar ekansan, men senga buni buyuraman!.

J.Salim mazkur dialogda sirli nido egasining mohiyatini ochishga harakat qilgan va o'quvchi bu suhbat, ya'ni sirli ovoznining buyruqlari orqali ovoz egasini Yaratganga muqoyasa qiladi.

"Qonlar" hikoya qahramoni Ibrohim samodan kelgan fidoiylik haqidagi ovozga quyidagicha javob beradi: *"Lekin mening o'g'lim yo'qki, men uni qurbonlik qilsam"*, *"u qorong'ulikda yon-atrofga alanglab, qurbon qilish uchun qo'chqorni izlaydi"*. Bu javobga Ibrohim yana boshqa javob oladi: *"Sen qo'chqorni qidirishga urinma, mo'jizalar zamoni o'tib ketgan, sizlar bugun insonlar mamlakatida yashamoqdasizlar. Sen o'zingni nafs va ifloslik to'lib toshgan shahring uchun fido qil"*. Ibrohim sirli ovoz bilan bo'lgan savol-javoblardan keyin, bu sharm-hayo yo'qolgan shaharni qanday qilib qutqarish mumkinligi to'g'risidagi o'y-fikrlarga berilib ketadi. Uni qo'rquv bosadi. Sirli ovozning Ibrohimga *"Sen o'z fidoiyliging bilan shahar iflosliklarini yuvishing kerak: qo'rquvni, irodasizlikni, razillikni, uyatni. Qoning shahar bo'ylab oqsin, shahar unga cho'milsin va abadiy poklansin"*, degan buyrug'ida ikki narsa: hikoya qahramonining savoliga javob hamda hikoyaning nima uchun "Qonlar" deb nomlangani asoslab berilgan.

J.Salim hikoya qahramonining ichki monologi orqali bu fidoiylikning ahamiyati, uning qoni shaharni poklashga qodir kuchga ega ekanligini bayon etish orqali, uni komil inson ekanligiga ishora qilgan.

O.Muxtorning "Muhabbat o'limdan kuchli" (Dengiz tubi sahro qa'rida) romani bosh qahramonining ismi ham Ibrohim. Roman qahramoni Ibrohim bilan bog'liq voqealarga Qur'oni karimdagi Ibrohim payg'ambar bilan bog'liq voqealar singdirib yuborilgan. Bu Ibrohim ham arab yozuvchisining Ibrohimidek halol, pok, mard, haqiqatparast inson. Romanda Ibrohim ismli zavod xodimining haqiqat uchun kurashishlari, bu yo'lda uning boshiga tushgan turli kulfatlar bayon etilgan. Roman sarlavhasi ramziy ma'no kasb etib, unda so'fiyona g'oyalar mujassamlashgan. Asar bosh qahramonining haqiqat uchun kurashishlari, ya'ni shaxsga nisbatan e'tiqodga qarshi chiqishi va bu yo'lda unga bo'lgan turli ofatlar, kulfatlar haqiqatga bo'lgan intilishini sindira olmaganini bayon etilgan. Roman magik realizm uslubida yozilgan bo'lib, asar syujeti ikki rejada real va noreal voqealar tizimidan iborat. Roman bosh qahramoni atrofida kechadigan voqealar real va fantastik, mistik, mo'jizaviy voqealar aralashmasida ro'y beradi. Romanda Ibrohimning o'z xodimlarining o'ziga nisbatan quldek tutishlarini talab qiluvchi qabix, zolim, manmansiragan zavod boshlig'i G'ayrat Sur'at bilan bo'lgan kurashi voqealari aks ettirilgan. Yozuvchi mana shu ikki xil insonlar Ibrohim va G'ayrat Sur'at o'rtasidagi kurash zaminida ezgulik, poklik, iymon-e'tiqod bilan yovuzlik, zulm, kibr, adolatsizlik, nohaqlik o'rtasidagi kurashni bayon etgan. Roman qahramoni Ibrohim G'ayrat Sur'atga quldek itoat qilishni xohlamaydi, unga e'tiroz bildiradi. Yozuvchi G'ayrat Sur'at obrazi orqali shaxsiyatparastlikni, nohaqlikni, zulmni, adolatsizlikni aks ettirgan.

O.Muxtor ham roman qahramonining "chegaradosh vaziyat"dagi holatida, ya'ni o'lim bilan yuzlashish jarayonida ongida kechgan o'y-fikrlari orqali Ibrohim payg'ambarining o'z qavmini haq yo'lga chorlashi va o'z qavmini sig'inayotgan but va sanamlarni parcha-parcha qilgani, uning bu ishidan qavm boshlig'i uni olovda yoqishni buyurganda Ibrohim payg'ambarini olovda Yaratganning buyrug'i bilan salqin holatga keltirib yonmasliklari haqidagi Qur'on oyat¹larini keltirib o'tadi². Yozuvchi mazkur

¹Куръон. Анбиё сураси 68-73 оятлар, Соффат сураси 97-99 оятлар, Анкабут сураси 24 оятлар.

²Мухтор О. Муҳаббат ўлимдан кучли. Роман. Т. 2012. 31 -32 б.



oyatlarni keltirishdan maqsad roman qahramonining o'zining iymon-e'tiqodida sobit qolib hayot-mamot jangida tirik qolishidir.

O.Muxtor ham asar qahramonining zavod boshlig'i G'ayrat Sur'atning o'limida ayblashib, tuhmatga qolib qochish jarayonida o'zini ariqqa suvga tashlashi va unga o'q tegib o'lmay qolishi, hushiga kelganida dengizda va boshqa bir mamlakatda bo'lib qolishi va uning dengizda, kutilmaganda sahrodagi g'aroyib sayohatlari orqali Ibrohimning haqiqat izlashdagi kurashishlari aks ettirilgan.

J.Salim ham, O.Muxtor ham o'z asarlarida Ibrohim obrazini aks ettirishda muqaddas kitoblardagi Ibrohim payg'ambar haqidagi qissa syujetlaridan istifoda etganlar. J.Salimning "Qonlar" hikoyasi va O.Muxtorning "Muhabbat o'limdan kuchli" (Dengiz tubi sahro qa'rida) romanlari murakkab poetik uslubga ega, ramziy ma'no kasb etgan asarlardir. J.Salimning "Qon" hikoyasi va O.Muxtorning "Muhabbat o'limdan kuchli" romanidagi bosh qahramonlarning ismi Ibrohim. Mazkur yozuvchilar asar qahramonlarining ismini Ibrohim qo'yishi bilan chegaralanmay ularning asardagi hayotini, ya'ni voqealar tizimini Ibrohim payg'ambar hayoti va faoliyati asosida bayon etib bugungi kun jamiyatidagi poklik, haqgo'ylik, to'g'rilik, iymon-e'tiqod mustahkamligi, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash masalasini ko'targan. J.Salim ham, O.Muxtor ham asar bosh qahramoni Ibrohimni Ibrohim payg'ambaridek kuchli e'tiqodga, chidam va bardoshga ega, haqiqatgo'y, pokdomon sifatlarga ega inson sifatida namoyon etgan. Ikki adib asarlaridagi Ibrohim obrazlari hayot sinovlari girdobida sobit iymon-e'tiqodlari, ezgu g'oyalar sari intilishlari orqali, haqiqat uchun kurashishlarida Ibrohim payg'ambardek g'oliblikka erishadilar.

J.Salimning "Qonlar" hikoyasida ham O.Muxtorning "Muhabbat o'limdan kuchli" romanida ham magik realizm unsurlari aks etgan. Ikkala asar syujetida reallik va to'qimaning, kundalik va ertakonalik, oddiylik va mo'jizaviylik aks etadiki, syujet ikki reja asosida, ya'ni real va noreal tarzda bayon etiladi. Bu o'ziga xos uslub orqali J.Salim va O.Muxtorning mantiqiy fikrlashini, realistik asos va ramziy hamda majoziy tasvirdagi yangi imkoniyatlarning o'zaro munosabatini aks ettiradi.

J.Salim ham O.Muxtor ham asarlarida Ibrohim payg'ambarning hayotini asar qahramonining murakkab vaziyatdagi, hayot-mamot kurashida "ong oqimi" orqali bayon etgan. Har ikkala asar qahramoni ezgulik, poklik ramzi. Har ikkala yozuvchi o'z asarlarida insonning murakkab psixologik jarayonlarini, uning borlig'ini, mavjudlik mohiyatini diniy ekzistensializm falsafiy dunyoqarash bilan boyitadi. Nemis faylasufi, diniy ekzistensializm asoschisi Karl Yaspers fikricha, "insonning har kungi hayotida uning ichki mohiyati ochilmaydi. U faqat chegaradosh vaziyatlarda, ya'ni insonning hayoti va o'limi hal qilinayotgan jarayonlardagina yuzaga chiqadi. Insonning borliq sirlari kundalik hayotda mavhum, yashirin bo'lib, g'ayritabiyy vaziyatda bu mavhumlikning asl qiyofasi gavdalanadi. Kundalik hayotda inson ilohiy kuchni his qilishga qodir emas, chunki uning ongi hayotiy tashvishlar bilan band bo'ladi. G'ayritabiyy hollarda, o'lim va hayot o'rtasidagi chegaradosh vaziyatlarda inson ilohiy kuchdan najot istab, unga intiladi. Demak, qo'rquv orqali inson ongi ilohiy kuchga yaqinlashadi"¹. J.Salim "Qonlar" hikoyasi va O.Muxtor "Muhabbat o'limdan kuchli" romani qahramonlari, ya'ni Ibrohimlar hayot va o'lim o'rtasidagi vaziyatda ilohiy kuchga yaqinlashishi va o'z pokliklari, sadoqatlari, ezguliklari sabab hayot ziddiyatlarida g'olib bo'ladilar va haqiqatga erishadilar.

XULOSA. Arab yozuvchisi J.Salim va o'zbek yozuvchisi O.Muxtor Ibrohim obrazi orqali faqat Yetuk va komil insonlar tufayligina hayot davom etib kelayotganini bayon etgandek. Har ikki yozuvchi ham payg'ambarlar hayotidagi voqealarni takrorlanmas, o'ziga xos syujetlar orqali o'zi yashayotgan davrdagi insonlar orasida uchrovchi nopoklik va egrilik kabi illatlarga urg'u bergan. Mazkur asarlarda ko'tarilgan mavzu va g'oya nafaqat o'z zamonasiga, balki bugungi kun insoniyatiga, butun bashariyatga ham tegishli mavzu va g'oyadir, desak xato bo'lmaydi.

¹Гарб фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти «Шарқ», 2004. – 633-634 б.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 53-58. ص. – 1976. دمشق: منشورات إتحاد الكتاب العرب. (Jo'tj Salim. "Qadimgi tashnalik tarixi". Hikoyalar. – Damashq: Arab yozuvchilari uyushmasi nashriyoti. 1976. 53-58 betlar)
2. Мухтор О. Мухаббат ўлимдан кучли (Денгиз туби сахро қаърида). Роман. Т., Ғ.Ғулом, 2012.
3. Мустақиллик даври адабиёти. Адабий-танқидий мақолалар, бадиалар. Т., Ғ.Ғулом, 2006.
4. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. Т., Маънавият, 2000.
5. Ғарб фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти «Шарқ», 2004.
6. Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ: Аруз вазни ва бадий воситалар ҳақида. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1981.
7. Куръони Карим.



ERONDA HIKOYA JANRI TARAQQIYOTIDA MUHAMMAD ALI JAMOLZODANING O'RNI

OYDIN TURDIYEVA

Dotsent, f.f.d., TDSHU

ORCID: 0000-0002-5202-1888



Annotatsiya. Maqola Eronda hikoya janri taraqqiyotida Muhammad Ali Jamolzodaning o'rni haqida. Shuningdek, maqolada ushbu janr kirib kelguniga qadar bo'lgan adabiy jarayonlar hamda ziddiyatlar ochib beriladi. Ma'lumki, XIX asr o'rtalariga qadar badiiy nasr pandnoma hikoyatlar, tarixiy-qahramonlik, fantastik asarlar, ertaklar shaklida ifodalab berilgan. Bu janrlarning ayrimlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan va zamonaviy fors badiiy nasrining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bir tomondan ming yillar mobaynida yaratilgan nasriy janrlar Eronda yangi hikoyanavislikning vujudga kelishida muhim omil hisoblanadi. O'rta asrlar adabiyoti syujetlari, obrazlari, iboralari, umuman badiiyati yangi davr hikoyanavisligi uchun tuganmas xazina sifatida xizmat qildi va xizmat qilib kelmoqda. Ikkinchi tomondan Eron adabiyotiga yangi tipdagi hikoya janrining kirib kelishi Yevropa adabiyotidan bo'lgan ta'sir bilan ham belgilanadi.

Mashrutiyyat (مشروطیت), ya'ni konstitutsion tuzum davrining oxirlari –1915-yildan so'ng an'ana va yangilanish to'g'risidagi bahs yanada keng quloch yoyib ketdi. Eronda adabiy o'zgarishlarga qarshi chiqib, qadim mumtoz uslubdan boshqa uslubda qalam tebratishni istamaganlar, yangicha uslubda yozishni tan olmagan adabiyot ahli juda ko'pchilikni tashkil etardi.

Bu davrda yangi tipdagi hikoyaning eng asosiy adabiy nazariyotchisi va targ'ibotchisidan yana biri Muhammad Ali Jamolzoda edi. Muhammad Ali Jamolzodaning 1922-yilda Berlinda "يکى بود و یکى نبود", ya'ni "Bor ekanda yo'q ekan" ilk hikoyalar to'plami chiqdi. Bu voqea yozuvchining yurti Eronda katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Shu to'plami bilan u Eron adabiyotiga yangi janr – hikoyani olib kirdi. Uning nomi zamonaviy Eron adabiyotining asoschilaridan biri bo'lib tarixda qoldi. To'plamdan joy olgan hikoyalar satirik va yumoristik ruhda bo'lib, Jamolzoda xalq hayoti, urf-odatlarini, rasm- rusumlarini ko'rsata oldi, o'tkir siyosiy mavzularni qalamga ola bildi.

Kalit so'zlar: Eron, hikoya, mashrutiyyat, Muhammad Ali Jamolzoda, adabiy tanqid, adabiy jarayonlar.

Аннотация. Статья посвящена роли Мухаммеда Али Джамаalzода в развитии жанра рассказа в Иране. В статье также раскрываются литературные процессы. Известно, что до середины XIX века художественная проза выражалась в виде рассказов, историко-героических, фантастических произведений, сказок. Некоторые из этих жанров сохранились до наших дней и оказали большое влияние на формирование современной персидской художественной прозы. С одной стороны, прозаические жанры, создававшиеся на протяжении тысячелетий, являются важным фактором появления нового стиля